

# SURXON TONGI

2026-yil  
11-fevral  
(chorshanba)  
6-son  
(17 990)

1935-yil 18-martdan chop etila boshlagan



surxontongi.uz



t.me/surxontongi

## ISLOHOTLAR SAMARASI



**Bugun katta-katta o'zgarishlar, yangilanishlar ostonasidamiz. Boshlangan islohotlar esa chekka-chekka tuman-u qishloqlarda ham xuddi shahardagidek sharoit va imkoniyatlar yaratish, zamonaviy va ko'rkam qiyofa kasb ettirishni ko'zlaydi.**

taqdim etildi. Viloyat hokimi Ulug'bek Qosimov ushbu master-rejalar taqdimoti bilan yaqindan tanisharkan, bo'lg'usi arxitektorlarning takliflari,

yo'nalishida tahsil olayotgan yoshlarning salohiyati, tashabbuskorligi va amaliy fikrlash qobiliyati bugungi islohotlar jarayonida naqadar muhim ekanini yana bir bor namoyon etdi. Talabalar tomonidan ishlab chiqilgan master-rejalar shahar va qishloqlarni zamonaviy, qulay va shinam infratuzilmaga ega, aholiga xizmat qiladigan puxta, ilmiy asoslangan va amaliy jihatdan tatbiq etishga tayyor loyihalar ekanligi bilan ahamiyatlidir. Bu ishlanmalar nafaqat "og'ir toifa"ga kiruvchi mahallalarni kompleks rivojlantirish, balki infratuzilmani yaxshilash, aholi turmush sifatini oshirish yo'lida muhim qadam bo'lib xizmat qiladi.

Shuningdek, tashrif davomida universitetda yangi tashkil etilgan

## OG'IR TOIFADAN ZAMONAVIY QIYOFAGACHA...

Bunda, albatta, yoshlarning, shaharsozlik, arxitektura sohasida o'qib izlanayotgan bo'lajak mutaxassislarining g'oya va takliflaridan andoza olish ayni muddao bo'ladi. Chunki, yurtning egalari yoshlar, ular milliylik nafasi bilan to'yingan zamonaviy me'moriy yechimlarni, qurilish va bunyodkorlik tavsiyalarini mukammal o'zlashtirayotir. Viloyat hokimi Ulug'bek Qosimovning o'tgan hafta mobaynida arxitektura va qurilish yo'nalishlarida tahsil olayotgan talabalar bilan uchrashib, ularning muammo va takliflarini tinglagani zamirida ham aynan yoshlarning ilmiy salohiyatini ishga solish, yosh kadrlarning soha sir-asrorlaridan xabardorlik darajasini sinovdan o'tkazish masalasi ham bor. Oliy o'quv yurtlarining mazkur yo'nalishlardagi bitiruvchilari uchun ish o'rni yaratish qanchalik oson bo'lmasa, ularni jahon bilan raqobatlasha oladigan kadr qilib tarbiyalash ham mushkul mavzu.

Shu bois, viloyat hokimi vohamizdagi shahar va tumanlardan tanlab olingan 114 ta "og'ir toifa"ga kiruvchi mahallalarning zamonaviy qiyofa kasb etishida malakali mutaxassislar qatori yosh kadrlar, talabalar

fikriga tayanish, ularning iqtidoridan foydalanish maqsadida belgilab bergan vazifasiga ko'ra yoshlar qisqa muddat ichida mazkur toifadagi mahallalar uchun master-rejalar ishlab chiqishga kirishgandi. Mazkur jarayon orqali



talabalar o'zlarining nazariy bilimlarini amaliyot bilan uyg'unlashtirib, arxitektura va qurilish sohasidagi kasbiy ko'nikma va tajribalarini yanada oshirish imkoniyatiga ega bo'lishi maqsad qilingan edi.

Buni qarangi, tinib-tinchimas, g'oya va tashabbuskor yoshlar bildirilgan ishonchni oqlab, chaqiriqqa "labbay" deb javob berdi. Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universitetida bo'lib o'tgan uchrashuvda mazkur vazifalar doirasida talabalar tomonidan ishlab chiqilgan master-rejalar



o'rinli tashabbuslarini alohida ta'kidlab o'tdi. Albatta, har bir taqdimot, yoshlarning takliflari qimmatli va e'tiborga molik. Ularga quloq tutgan

borki, mahallalarni ilmiy tugal, zamonaviy yechim bilan to'ldirilgan tarzda tasavvur etadi. Jamiki jihatlar inobatga olingan loyihalarni istiqbolli va amaliyotga tatbiq etish mumkin deya ishonch bilan aytish mumkin. Aytish kerakki, mas'ul tashkilotlar bilan hamkorlikda tayyorlangan ushbu loyihalar mahallalarni kompleks rivojlantirish, infratuzilmani yaxshilash, shuningdek, aholi uchun qulay va estetik muhit yaratishni nazarda tutadi. Taqdimot jarayonida loyihalar yuzasidan qator taklif va tavsiyalar bildirildi.

Mazkur uchrashuv muhandis-arxitektorlik

"STUDENT SERVICE" spin-off korxonasi faoliyati bilan ham tanishildi. Ta'kidlash o'rinliki, korxonaning

uy-joylarni ta'mirlash, tozalash va klining, elektromontaj, mebel ta'miri, veterinariya hamda bog'dorchilik xizmatlarini yo'lga qo'ygan. Shuningdek, Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universitetining axborot xizmati bergan ma'lumotlarga ko'ra uchrashuvda ilgari surilgan vazifalarni namunaviy bajargan, tashabbuskorligi va salohiyati bilan ajralib turgan 20 nafar talaba zamonaviy arxitektura sohasida ilg'or tajribaga ega bo'lgan beshta xorijiy davlatda malaka oshirish va tajriba almashish uchun yuborilishi belgilangan.

"Surxon tongi"

**Sahna jang maydoni emaski, unda g'olib-u mag'lub bo'lmagay, haq so'z uchun kurashilmagay?! Magarki, jang maydonida sarkarda, kirash maydonida bir mutafakkir lozim. Biroq ijod ham bir majoziy jang. Jangki — aql, tafakkur va iqtidor jangi. Tomoshabin qalbiga kirib bora oladigan badiiy asarning-da uzoq yashashi va ulug'lanishi shundan.**



Ravshanov shogirdiga ko'p iltifotlar bilan Navoiy obrazini yaratish imkonini berdi. Va

qoldim. Bu sahnaning sehri siridan dalolatmikan?! Hayratim sabablari shunday: yangrayotgan musiqa Navoiyning yuragidagi sas edi. So'z Navoiyning

## NAVOIY QAYTDI

Barcha nodir asarlar muxlis, jo'n qilib aytadigan bo'lsak, xaridorining borligi uchun zamonlar osha yashab qoladi. Shuningdek, xalq qahramonlari ham. Bu mazmunda juda ko'p misollar keltirishimiz mumkin... Turkiy til nodir uzuk bo'lsa, Alisher Navoiy uning ko'zidir. Qalbi g'urur va yashashga to'la ishonchi bor keksa-u navqiron ziyo istovchi, albatta, Navoiyga intilishining guvohi bo'ldim. Viloyat musiqali drama teatrida uzoq yillar ilgari O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at abobi Mansur Ravshanov tomonidan sahnalashtirilgan va turli sabablardan tufayli 2022-yildan buyon o'ynalmay qolgan Izzat Sulton va Uyg'un qalamiga mansub "Alisher Navoiy" tarixiy dramasi qayta tiklandi.

Azaldan Surxondaryo xalqi o'zining iqtidorli farzandlari bilan nom qozongan. Shulardan ma'lumotlarga ko'ra o'rsatgan artist, aktyor Homid Oripovdir. H.Oripov tarjimai holi oddiy insonlarnikidek, ammo san'atdagi hayoti olis Boysun go'zal kechalari chirog'ining nuridek yorqin. Bilamizki, teatr san'ati tom ma'noda, aktyorning borlig'i bilan bog'liq. Aktyor Homid Oripov, teatrnin tasavvur

sharaf bilan ayta olamanki, Homid Oripov uddaladi. Buni san'atdagi chinakam baxt desak, mubolag'a emas. Isbot esa had-hududsizdir.

"Alisher Navoiy" spektakli tarixiy drama. Bu janrning mushkuloti shulki, hammaning tasavvurida har xil gavdalanib qolgan qahramonning hamma ham bilmagan qirralarini topa olish kerak bo'ladi. Bu aytishgagina oson, xolos. Asosiy vazifa esa xalqni sahnadagi "yolg'on"ga ishonтира olish. Bunda aktyorda mahorat kerak, avvalambor, o'zidagi badiiy ishonchni o'tirib mulohaza qilmoqchi bo'lib turgan tomoshabinning tasavvuriga joylay olishi kerak, uni o'ziga ergashtirishi kerak. Homid Oripov Navoiy obrazida bu og'ir vazifani uddalay olgan. Sahnada aktyor uchun xizmat qiluvchi musiqa, sahnaviy muhit, dekoratsiyalar, jihozlar-u detallar, yordamchi aktyorlar hamma-hammasi aktyor — Navoiy ichki kechinmasidan ipga

ayni o'zi edi. Dekoratsiya va sahna muhiti o'n beshinchi asr... Sahnadagi personajlar Hirotning o'n beshinchi asrdagi bizga tanish sodda odamlar... Husayn Boyqarodek qudratli shoh o'zgalari qo'lida o'yinchoq edi. Yovuzlar, xoinlar esa juda ko'p... Xiyonatkorlar odamiy tilda so'zlovchi Navoiyning har qadamini poylovchi edi. Muhabbat o'ziga, Navoiy himoyasiga intizor edi. Benavo xalq bir malhamga muhtoj edi. Har doim muammolar kelsa, Navoiy balogardon edi. Afsuski, Navoiy yolg'iz edi. Ammo u hammasini yengdi. Bu Navoiy — Homid Oripov talqinida qalbi to'la muhabbat, xalqiga mehribon, davlat poydorligini ta'minlagan, so'zni san'atga aylantira olgan, asrlar osha sevilib kelayotgan mutafakkir va beg'araz inson obrazidir. Homid Oripov O'zbekistonning noyob aktyori ekaniga shubhalanmadim. Ayniqsa, tarixiy dramadagi romantik chizgilar aynan san'atkorning kasbiy uslubi edi. Butun spektaklda noyob qudrat — sahna dinamikasini tutib turish uning professional malakasidanidir.

Katta-katta yangi obrazlar yaratishiga ishonchim ortdi. Va shunday bo'lishini istablar qoldim. Homid Oripov noyob obrazlari bilan hali ancha yillar sahnada Sarkarda bo'lib qolajak!

**Hamza XONOV,**  
Viloyat musiqali drama teatri ijodiy masalalar bo'yicha direktor o'rinbosari, dramaturg, aktyor



qilish mumkin emas. Ana shu teatrnin borlig'i uchun kurashib xizmat qilayotganlar safida Homid Oripov sarkardalikni uddalab kelmog'ida. Albatta, ustoz Ravshanov tufayli! Zar qadri zargardan o'zga bilmagani kabi, Mansur

tizilgandek zinama-zina o'tib boraveradi. Butun spektakl voqeasi Navoiyga aylanib ketaveradi. Oldinlari Oripov bilan bu spektaklda birga o'ynagan bo'lsam ham nimaga buni sezmaganimdan hayratda



## CHORSHANBADAN CHORSHANBAGACHA

**DENOV tadbirkorlik va pedagogika instituti hududida Alisher Navoiy tavalludining 585 yilligi munosabati bilan buyuk shoir va mutafakkir sharafiga o'rnatilgan haykalning tantanali ochilish marosimi bo'lib o'tdi. Ushbu haykalning qad rostlashi buyuk ajdodimizga ko'rsatilayotgan cheksiz ehtirom namunasidir.**

**JARQO'RG'ON VA QUMQO'RG'ON TUMANLARI** chegarasidagi "Navbahor" mahallasiga kirish qismida, ya'ni G'ishtko'prik (Iskandarko'prik) yonida ramziy inshoot — stella qurish ishlari amalga oshirilmoqda. Mazkur ramziy inshoot zamonaviy va milliy ruhni uyg'unlashtirgan me'moriy qiyofani shakllantirib, mehmonlar uchun jozibadorlikni oshirishga xizmat qiladi.

**TERMIZ SHAHRIDAGI** "Guliston" mahallasida ekologik barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan hamda xalqaro ahamiyatga ega "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida navbatdagi ko'chat ekish tadbiri o'tkazildi. Tadbirga tumanlar studiyalari ham ulanib, viloyat bo'ylab jami 750 ming tup daraxt ko'chatini ekish ishlariga start berildi.

**TERMIZ TUMANIDAGI** "Sabzipoya" mahallasi hududida joylashgan, maydoni 7,2 gektar bo'lgan sobiq oromgoh o'rnida Termiz davlat universiteti huzurida zamonaviy dam olish maskanini tashkil etish ishlari boshlanish arafasida. Loyiha ishga tushsa, talaba-yoshlar, professor-o'qituvchilarning munosib hordiq chiqarishi, ijodiy ishlari bilan shug'ullanishida ilhom manbayi bo'lishi aniq.

## XALQ DEPUTATLARI SURXONDARYO VILOYATI KENGASHINING QARORI

### SURXONDARYO VILOYATIDA 2026-YILDA DAVLAT KO'CHMAS MULKIDAN FOYDALANGANLIK UCHUN IJARA TO'LOVNING ENG KAM STAVKALARINI TASDIQLASH TO'G'RSIDA

O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi qonunining 6-, 24-moddalariga muvofiq hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 23-iyundagi "O'zbekiston Respublikasida mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatini 2030-yilga qadar rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" PF-98-son Farmonining 3-bandi hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 14-dekabrda "Davlat mulkini ijaraga berish tartibini yanada takomillashtirish to'g'risida" 660-son qaroriga asosan 2026-yilda viloyatda davlat ko'chmas mulkidan foydalanganlik uchun ijaraga beriladigan eng kam stavkalarini tasdiqlash maqsadida xalq deputatlari Surxondaryo viloyati Kengashi qaror qiladi:

1. 2026-yilda viloyatda davlat ko'chmas mulkidan foydalanganlik uchun ijaraga beriladigan eng kam

stavkalarini tasdiqlash yuzasidan Davlat mulki obyektlaridan samarali foydalanish markazining viloyat hududiy boshqarmasi boshlig'ining ma'ruzasi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Surxondaryo viloyatida 2026-yilda davlat ko'chmas mulkidan foydalanganlik uchun ijaraga beriladigan eng kam stavkalarini 1-ilovaga;

Sanoat zonalarini hududlaridagi davlat ko'chmas mulkini 2026-yilda ijaraga berishda qo'llaniladigan ijaraga beriladigan eng kam stavkalarini 2-ilovaga;

ijara to'lovi stavkalariga qo'llaniladigan koeffitsiyentlar 3-ilovaga;

ijara to'lovining eng kam stavkalariga qo'llaniladigan koeffitsiyentlarning hisoblash tartibi 4-ilovaga;

viloyat markazi hamda shahar va tumanlar markazi (birinchi darajali) ko'chalar ro'yxati 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. O'zbekiston Respublikasi

Davlat aktivlarini boshqarish agentligi huzuridagi Davlat mulki obyektlaridan samarali foydalanish markazining viloyat hududiy boshqarmasi (Y.Namozov)ga:

— davlat mulkini ijaraga berishni tashkil etish va ijaraga berish;

— ijaraga berilgan davlat mulkini va uni ijaraga berishdan tushadigan mablag'larni hisobga olish va monitoringini olib borish;

— ijaraga beriladigan davlat mulki bo'yicha ma'lumotlar bazasini shakllantirish;

— ijara obyektlaridan maqsadli foydalanilishini va ularning saqlanishini, shuningdek, ijara to'lovi o'z vaqtida va to'liq to'lanishini nazorat qilish;

— davlat mulkini ijaraga berish sohasidagi qonunchilikni buzish holatlarini aniqlangan hollarda ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risida bayonnomalar rasmiylashtirish va sudlarga yuborish;

— foydalanilmayotgan davlat mulkini ijaraga berilishi to'g'risidagi e'lonlarni va ijaraga berilayotgan

davlat mulklari ro'yxatlarini davriy nashrlarda hamda viloyat hokimligi, Davlat aktivlarini boshqarish agentligi viloyat hududiy boshqarmasining va Savdo-sanoat palatasi viloyat hududiy boshqarmasining veb-saytlari va ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarida joylashtirilishini ta'minlash topshirilsin.

4. O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi huzuridagi Davlat mulki obyektlaridan samarali foydalanish markazining viloyat hududiy boshqarmasi (Y.Namozov), viloyat Soliq boshqarmasi (E.Narmanov), shahar va tumanlar hokimliklari hududlarda ijara munosabatlarini tartibga solish, ijaraga berilayotgan davlat mulki hisobotini to'g'ri yuritish va budjetga qo'shimcha mablag'larni jalb qilish maqsadida davlat mulkini balansda saqlovchilari tomonidan ijaraga berish samaradorligini oshirish va tashkillashtirishda o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'yish.

5. Viloyat boshqarmalari hamda tizim tashkilotlari balansidagi davlat mulklarini xatlovdan o'tkazsin va bo'sh turgan yoki samarasiz foydalanilayotgan davlat mulklarini ijaraga berish bo'yicha har chorak yakuni bilan hisobot oyidan keyingi oyingning 10-sanasi gacha Davlat aktivlarini boshqarish agentligi huzuridagi Davlat mulki obyektlaridan samarali foydalanish markazining viloyat hududiy boshqarmasiga bu mulkning joylashgan joyi, miqdori, tarkibi va boshqa umumiy tavsiflari ko'rsatilgan ma'lumotlarini taqdim etib borsin.

6. Davlat kadastrlar palatasi viloyat hududiy boshqarmasi (S.Shaymardonov) har chorak yakuni bilan keyingi oyingning 5-sanasi gacha qadar viloyatda mavjud davlat mulki obyektlarining ro'yxatini elektron holatda saqlovchilari tomonidan ijaraga berish samaradorligini oshirish agentligi huzuridagi Davlat mulki obyektlaridan samarali foydalanish markazining viloyat hududiy

boshqarmasiga taqdim etib borsin.

7. Viloyat hududida 2026-yilda davlat mulki bo'lgan binolar va xonalarda joylashgan byudjet tashkilotlari uchun ijaraga to'lovining "nol" stavkasi belgilab qo'yilsin.

8. Viloyat hokimligi axborot xizmati (M.Davlatov), mazkur qarorni "Surxon tongi" gazetasida e'lon qilinishini hamda viloyat hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilishini ta'minlasin.

9. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari Surxondaryo viloyati Kengashining mahalliy byudjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi (I.Yoqubov) zimmasiga yukatilsin.

10. Ushbu qaror rasmiy nashrlarda e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

**Kengash raisi A.CHORIYEV**  
**2026-yil 3-fevral**  
**VII-17-15-8-0-K/26**

1-ilova

### SURXONDARYO VILOYATIDA 2026-YILDA DAVLAT KO'CHMAS MULKIDAN FOYDALANGANLIK UCHUN IJARA TO'LOVNING ENG KAM STAVKALARI

(bir yilga umumiy foydalanish maydonining 1 kv.m uchun)

T/r	IJARAGA BERILADIGAN MAYDONLARDAN FOYDALANISH MAQSADI	2026-yilda 1 kv.m maydon uchun yillik eng kam ijaraga to'lovi stavkalarini (QQS bilan birga)	
		Termiz shahri uchun	Tumanlar uchun
<b>Ishlab chiqarish</b>			
1	Ishlab chiqarish turlari bo'yicha (kimyo, neft, mashinasozlik, hisoblash texnikalari, traktorsozlik, maishiy anjomlar, sanitariya, metall, tamaki, elektronika va santexnika mahsulotlari va jihozlari)	18 240	12 882
2	Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish	57 798	41 895
3	Elektr energiya ishlab chiqarish	18 240	12 882
<b>Qurilish sanoati</b>			
4	Qurilish mahsulotlari sanoati (asfalt, bitum, tosh saralash, shlakoblok, penablok, gazoblok, suvoq qorishmalari, gipsokarton, tunikafon, shifer, sement, senvich panel ishlab chiqarish va yog'ochni qayta ishlash)	18 240	12 882
5	Deraza, eshiklar va mebel ishlab chiqarish sanoati (yog'ochdan)	60 762	39 387
6	Deraza, eshik va mebellar ishlab chiqarish (plastik, alyumin va MDFdan)	96 672	55 233
<b>Yengil sanoat</b>			
7	Yengil sanoat turlari bo'yicha (to'qimachilik, tikuvchilik, charm, mo'yna, poyabzal, selluloza-qog'oz sanoati)	18 240	12 882
<b>Oziq-ovqat sanoati</b>			
8	Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish (yog', go'sht, baliq, ichimlik, un, qandolat mahsulotlari hamda omuxta-yem sanoati)	18 240	12 882
9	Chorva (qo'y) mollarini so'yish va sotish (jumladan kushxona)	51 528	37 050
10	Sut mahsulotlari sanoati	35 682	25 764
11	Non va qolipli (bulka) non mahsulotlari ishlab chiqarish	51 528	32 148
<b>Qishloq xo'jaligi</b>			
12	O'simlikshunoslik (o'rmon xo'jaligi va bog'lar) 1 gektar yer maydoni uchun	7 360 068	5 271 360
13	Issiqxona xo'jaligi 1 gektar yer maydoni uchun	18 355 140	12 655 140
14	Chorva va parranda yetishtirish (boqish)	8 778	6 384
15	Baliqchilik (shu jumladan, sun'iy maydon) 1 gektar uchun	16 480 068	10 971 360
16	Asalarichilik 1 gektar yer maydoni uchun	4 784 466	3 426 726
<b>Transport va aloqa</b>			
17	Transport infratuzilmalari (avtopark, taksopark, avtomobil to'xtash joylari va garaj)	18 240	12 882
18	Transport infratuzilmalari (jarima maydonlari)	9 348	4 617
19	Avtomobillarni yuvish	59 052	37 164
20	Avtomobillarga yonilg'i quyish (benzin, dizel)	64 410	47 994
21	Avtomobillarga yonilg'i quyish (gaz quyish shoxobchalari)	71 820	51 984
22	Elektromobillarni quvvatlash shoxobchasi	31 236	22 686
23	Yengil avtomashinalar va boshqa turdagi transport vositalarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish	58 938	42 066
24	Vulkanizatsiya, payvandlash, chilangarlik ishlarining barcha turlari	44 802	32 376
25	Aholi buyurtmasiga asosan yuk tashish va transport xizmatlari	33 174	23 940
26	Pochta va kuryerlik aloqasi	40 926	29 640
27	Elektr-simli aloqa (WiFi Router)	36 822	26 220
28	Radio, uyali aloqa va peydjer aloqasi (inshootlarni hisobga olgan holda hudud doirasida)	154 584	110 808
<b>Savdo va umumiy ovqatlanish</b>			
29	Ulgurji savdo	51 528	37 050
30	Mahsulotlarni (xizmatlarni) qismlab savdo faoliyatini amalga oshiruvchi ulgurji savdo bozorlaridagi savdo do'konlari	132 354	94 620
31	Chakana savdo	51 528	37 050
32	Sotuvchisiz elektron uskunalar orqali chakana savdoni tashkil etish	125 172	102 372
33	Umumiy ovqatlanish (Tabiiy va sun'iy suv havzalari hamda daryo bo'ylarida baliq mahsulotlari va taomlari savdosi, fast-food)	51 528	37 050
34	Kitob do'konlari	7 182	5 358
35	Lombardlar	66 576	47 652
<b>Xizmat ko'rsatish</b>			
36	Xizmat ko'rsatish turlari bo'yicha (xo'jalik buyumlarini ijaraga berish, nusxa ko'chirish, ko'chmas mulklar bilan bog'liq xizmatlar, reklama va ko'rgazmalar, geodeziya va gidrometeorologiya)	51 528	37 050
37	Kompyuter o'yinlarini tashkil etish	77 292	55 518
38	Mehmonxona xo'jaligi	58 938	42 066
39	Mehmonxona (Hostellar uchun)	29 469	21 033
40	Umumiy yashash joylari (shu jumladan, oila, talabalar va o'quvchilar turar joylari)	45 828	32 148
41	Maishiy xizmatning noishlab chiqarish turlari (veterinariya xizmatlari, kimyoviy tozalash va bo'yash, avtomobil, velosiped, samokatlarni ijaraga berish, paxta va jun tozalash va titish hamda ko'ngilochar qurilmalar joylashtirish)	29 640	21 090
42	Mashina va uskunalarini ta'mirlash	18 240	12 882
43	Loyiha, loyiha-qidiruv tashkilotlari	40 926	29 640
44	Poliqrafiya sanoati	44 802	37 050
45	Qishloq xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar	40 926	29 640
46	Suv bo'yida xizmat ko'rsatish joylari (plyaj zonalarini, baliq ovlash maskanlari, qayiqda suzish va suv sayohati va suv bo'yida turizm xizmatlarini tashkil etish)	36 822	26 220
47	Quyosh panellari va suv isitish qurilmalar joylashtirish	8 778	6 384

48	Sartaroshxona, fotosalon, modalar atelyesi, poyabzallarni ta'mirlash ustaxonasi	44 346	32 148
49	Hammomlar	88 692	63 384
50	Saunalar va basseynlar	176 700	126 654
<b>Turizm xizmatlari</b>			
51	Madaniy meros obyektlarida hunarmandchilik turlari bo'yicha (misgarlik, zargarlik, o'yimakorlik, rassomchilik, do'ppido'zlik, telpak, cho'girma, chopon va x.k.)	54 948	42 978
52	Hunarmandchilik turlari bo'yicha (yodgorlik majmualari yasash, misgarlik, zargarlik, o'yimakorlik, rassomchilik, do'ppido'zlik, telpak, cho'girma, chopon va x.k.)	43 548	31 578
53	Madaniy meros obyektlarida hostel va mehmonxona xizmatlarini tashkil etish	103 398	80 598
54	Madaniy meros obyektlarida savdo xizmatlarini ko'rsatish (esdaik buyumlari, sovg'alar, hunarmandchilik mahsulotlari va h.k.)	80 712	57 912
55	Madaniy meros obyektlarida umumiy ovqatlanish shoxobchalari (restoran, kafe, fast-food va h.k.)	91 998	65 778
56	Madaniy ko'ngilochar markazlar (bilyard, o'yin avtomatlari, diskoteka)	58 938	42 066
<b>Sog'liqni saqlash</b>			
57	Davolash maskani (stasionar davolash) **	36 822	26 220
58	Davolash maskani (shu jumladan, laboratoriya, operatsion blok, stomatologiya, fizioterapiya)	113 430	90 630
59	Tibbiy asbob uskunalarini o'rnatish (massajlovchi stullar, MRT, UZI, MSKT, rentgen va boshqa qurilmalari)	140 334	117 534
60	Tibbiyot sanoati (tibbiyot buyumlari, asbob uskunalarini va dori vositalari ishlab chiqarish)	141 474	118 674
61	Fitobar	25 422	18 240
62	Dorixonalar (optika, tibbiyot anjomlari va jihozlari sotish)	62 016	33 288
63	Protez-ortopediya moslamalarini tayyorlash va ta'mirlash	36 822	26 220
64	Ijtimoiy dorixonalar	26 220	17 100
<b>Jismoniy tarbiya va sport</b>			
65	Sport maydonlari (stadionlar)	33 402	27 702
66	Sport zallari (qo'l jangi, karate, kurash, sambo, erkin kurash va h.k.)	18 240	12 882
67	Fitnes va yengil atletika zallari**	145 920	123 120
<b>Ta'lim</b>			
68	Nodavlat ta'lim tashkilotlari (oliy, o'rta ta'lim) **	32 300	23 000
69	Nodavlat ta'lim tashkilotlari (maktabgacha tarbiya muassasalari) **	13 039	9 773
70	Tayyorlov kurslari (IT kurslari uchun)	53 300	38 600
71	Tayyorlov kurslari (malaka oshirish va o'quv kurslari)	19 320	14 200
72	Oliy ta'lim muassasalarida umumiy ovqatlanish	35 910	25 878
73	O'rta maxsus ta'lim muassasalarida (jumladan, maktablarda) umumiy ovqatlanish	23 750	17 000
74	Madaniyat va san'at	51 528	37 050
75	Ko'rgazmalar	39 786	29 754
76	Madaniy dam olishni tashkil etish (bog'lar, zooparklar, televideniya va radioeshittirishlar redaksiyalari)	36 822	26 220
77	Kinostudiyalar, ovoz yozish studiyalari	58 938	42 066
78	Fan va ilmiy xizmatlar ko'rsatish	22 344	15 732
79	Avtomaktablar	32 661	18 696
80	O'quv amaliyot poligonlari (test tajriba va sinov maydonlari)	18 240	12 882
<b>Moliya-kredit faoliyati</b>			
81	Moliya, kredit va pensiya ta'minoti (sug'urtalash va auditorlik faoliyatidan tashqari)	51 528	37 050
82	Auditorlik faoliyati	51 528	34 656
83	Buxgalteriya va soliq servis xizmatlari	80 712	57 912
84	Marketing tadqiqotlari, tijorat, moliya va boshqaruv faoliyatlari bo'yicha maslahatxonalar	51 528	37 050
85	Bankomatlar	737 580	528 162
86	Paynetlar	147 858	105 735
87	Turli xizmat turlari uchun to'lov qabul qilish maskanlari (kassalar)	147 858	105 735
88	Turli xizmat turlari uchun to'lov qabul qilish maskanlari (banklar uchun kassalar)	146 600	104 800
89	Front-ofislar (banklar uchun)	62 928	51 528
90	Bank xizmatlari ofisi	51 528	37 050
91	Sug'urta faoliyati	44 346	37 050
92	Aviakassalar (shu jumladan, temiryo'l, avtotransport va boshqalar)	80 712	57 912
<b>Faoliyatning boshqa turlari</b>			
93	Notarial xizmatlar	51 528	37 050
94	Sud va yuridik xizmat muassasalari hamda advokatlar kollegiyasi	44 346	32 148
95	Jamoat birlashmalari	14 877	10 374
96	Omborxonalar	51 528	37 050
97	Davlat korxonasi va muassasalari	22 344	15 732
98	Xususiy tashkilotlarga ofis	80 712	57 912
99	Arxiv xizmati	22 344	13 167
100	Tahririyat va nashriyotlar	29 640	21 090
101	Metallolom va ikkilamchi qog'oz (latta) mahsulotlarini to'plash joylari	29 640	21 090
102	Laboratoriyalar (tibbiy xizmatlardan tashqari)	36 822	26 220

Izoh: Davlat mulkini ijaraga berishda imtiyozlar va preferensiyalar qo'llanishi qonunchilikda belgilangan tartiblarda amalga oshirilishi mumkin.  
"O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yildagi 2-sentyabrdagi "Davlatga tegishli suv havzalarini tadbirkorlik subyektlariga "E-auksion" elektron savdo platformasi orqali ijaraga berish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 441-son qaroriga asosan qo'shilgan faoliyat turlari.



Навоий ижодий фаолиятида бадийят билан бир қаторда тилдан фойдаланиш ҳақидаги қарашлари ҳам алоҳида моҳият касб этади. Сўз, тил, нутқ одоби, нутқ ма-

нинг ўзи ҳақ ва пайғамбар йўлига кириши, сўнгра эса насихат билан элни ҳам шу йўлга солиши лозим".  
Шоир воизликни юксак маҳорат эгаси бўлган шахслар эгаллаши мумкин-

ва ҳалол иш кўрувчи киши бўлишини тарғиб қилади. Зеро, кимки бошқаларга насихат қилса-ю, ўзи унга амал қилмаса унга ҳеч ким ишонмайди ва уни тингламайди.

ва ширин тил унга малҳам ва роҳатдир.  
Навоий наздида тил ёмонлиги инсондаги энг катта кулфат. Ёмон тиллик натижасида бошқаларга озор етади, ўрни би-

ширин инсонни оқил деб билади, тил билан дилни бир бўлишини, бу аъзолар инсондаги энг яхши аъзолар эканлигини уқтиради. Ширин сўз соф кўнгиллар учун асал каби тоғлидир.

NUQTAYI NAZAR

Шоир инсон сўзини гўзал бўлишини тарғиб қилади. Бунинг учун сўзда гўзаллик зийнатлари бўлиши талаб қилинади. Агар ана шу зийнат,



**Алишер Навоий бадий ижоднинг нодир намуналарини яратиб, жаҳон бадий адабиётига улкан ҳисса қўшган бетакрор ижодкордир. У ўзининг мазмунан теран, бадий мукаммал асарлари билан ўзбек адабиётини юқори чўққига кўтара олган сўз санъаткори.**

# ЯХШИ СЌЗ МАЛҲАМДИР, ЁМОННИ КУЛФАТ

данияти, сўзлашиш маҳорати ҳақидаги фикрлари А. Навоий фаолиятининг муҳим томони бўлиб, бугунги кунда шоирнинг шу ҳақдаги қарашлари тилдан фойдаланиш тўғрисидаги маълумотнинг асосий моҳиятини ташкил этади. Шоирнинг 1500 йилда яратилган "Маҳбуб ул-қулуб" асари сўз кудратини англаш, нутқ одоби ҳақидаги беназир ахлоқий-таълимий асардир. Асарда тил, сўздан фойдаланиш ҳақида 100 га яқин ҳикмат келтирилган.

Алишер Навоий бу асарда турли ижтимоий табақалар, яхши ва ёмон феълли хислатлар ҳақида фикр юритар экан, воизлар (нотиклар) хусусида ҳам мулоҳазаларини баён этади. А. Навоийнинг нутқ одоби масаласидаги фикрлари орасида тўғри сўзни сўзлаш, ёлгон сўздан қочиш тўғрисидаги қарашлари алоҳида аҳамиятга эга. Шу боисдан ҳам шоир воизлик ҳақида фикр юритганда ҳам асосий эътиборни воизнинг тўғри сўз бўлишига қаратади: "Воиз ҳақ сўзини тарғиб қилиши, пайғамбар сўзидан четга чиқмаслиги керак, энг аввал,

лиги, ваъзхонлар зиммасида жуда катта масъулият юкланган бўлишини алоҳида таъкидлайди. Асарнинг ваъзхонлар тўғрисидаги 21 қисмида ваъз ҳар қандай кишининг иши эмаслиги, ваъзхонлар камолга етган кишилар бўлиб, уларнинг насихатлари бошқалар учун ўрнак бўлишини куйидагича баён этади.

"Ваъз — муршидлар-пирлар хушёр кишиларнинг ишидир ва уларнинг насихатини қабул этган мақбул кишидир". Навоий воизлик ҳақида фикр юритар экан, уларни бошқаларга нисбатан камолга етган, оқ-қорани таниган кишилар бўлиши лозимлиги, акс ҳолда одамларни яхши йўлга бошлаш ўрнида, мақсадсиз йўлларга етаклаши мумкинлигини таъкидлайди.

Шоир наздида ваъзхон катта билим-тажрибага, сўз кудратини намоён этувчи кучга эга бўлиши керак. Унинг нутқидан тингловчи одам ўзига нималарнидир олсин, нутқдан роҳатланиб, ҳордиқ чиқарсин: "Ваъзхон шундай бўлиши керакки, унинг мажлисига кирган одам тўлиб чиқсин; тўла кирган одам эса энгил тортиб, холи қайсин."  
А. Навоий воизни олим

Алишер Навоий сўзлаш фаолиятини кишининг ахлоқ-одобини кўрсатувчи меъёр ҳисоблайди. Инсоннинг ахлоқ-одобини белгилувчи муҳим томони унинг нутқи орқали билинар экан, киши ўз нутқида сўзлардан ўринли фойдаланишини, ўз фикрини ўйлаб баён этиши лозимлигини, керакли сўзни айтиб, кераксиз сўздан воз кечишини тарғиб қилади: Сўзни кўнгилда пиширмагунча тилга олма; дилингда бор гапнинг ҳаммасини тилингда келтирма.

А. Навоий инсоннинг кимлигини унинг сўзи орқали билинаётганини қайта-қайта уқтирар экан, сўзида ман-тиги йўқ кишиларни ақлий лозимлиги, акс ҳолда одамларни яхши йўлга бошлаш ўрнида, мақсадсиз йўлларга етаклаши мумкинлигини таъкидлайди.

Шоир аччиқ тиллиликни қоралайди. Аччиқ тилни заҳарли ханжарга қиёслар экан, бундай тил билан жароҳатланган кўнгилга малҳам бўладиган сўздан бошқа ҳеч нарса йўқ, ана шундай жароҳат олган кўнгилга фақат яхши сўз ва ширин тил малҳам бўлишини уқтиради: Агар бир кўнгилга тил найзасининг жароҳати бордир, фақат яхши сўз

лан бундай одат сўзловчи бошига ҳам ёмон кунларни солади. Бу ҳолни шоир: "тили ёмон одам — халқ кўнглини жароҳатлайди, ўз бошига ҳам офат етказди" ҳикматида бутун моҳияти билан акс эттирган. Одамнинг бошқа ҳайвондан имтиёзи тили орқали эканлигини кўрсатар экан, шоир "мулойим сўз ваҳшийларни улфатга айлантиришини уқтиради ва аччиқ тилликка ширин сўхуанликни қарама-қарши қўяди.

Навоий ёмон сўзликни нодонлик аломати ҳисоблайди. Бўлар-бўлмас сўз (фикр)ларни айтувчилар, бақириб-чақириб гапирувчилар, озгига келган гапни, гап деб айтувчиларни шоир нодонлар деб билади ва уларни инсонийлик доирасидан чиқиб кетганлигига ишора қилади: "Кўп бемаза сўзлайдиган эзма — кечалари тонг отгунча хурадиган итга ўхшайди. Нодоннинг ваҳшийларга бақирмоғи — эшакнинг бе-маҳал ханграмоғи, озгига келганни демоқ нодоннинг иши ва олдига келганни емоқ ҳайвоннинг иши".

Шоир: "сўзда ҳар қандай яхшилиқнинг имкони борлигини" таъкидлар экан, хушсухан, ширинсўз бўлишни тарғиб қилади. Тили

Хушсухан одам юмшоқлик билан дўстона сўз айтади; кўнгилга тушиши мумкин бўлган юз ғам — унинг сўзи билан даф бўлади. Сўзда ҳар қандай яхшилиқнинг имкони бор...

Хушмуомала, ширинсўз бўлишни шоир инсоннинг яхши фазилати деб билади, чунки шундай хулқ орқали душман дўстга айланади, аксинча ёмонсўзлик билан кишилар кўнглига озор берилишини куйидагича таърифлайди.

**Ҳар кимки чучук сўз элга изҳор айлар,**

**Ҳар неки ағёр дурур ёр айлар,**

**Сўз қатиға эл кўнглига озор айлар.**

**Юмшоғи кўнгилларни гирифтор айлар.**

Шоир одоб-ахлоқ нутқайи назаридан чин ва ёлгон сўзга баҳо берад экан, ёлгончиликни каттиқ қоралайди, ёлгончилик бир кун бошга бало келтиришини уқтиради. "Чин сўзни муътабар" деб биладиган улғу аллома ёлгон сўз қандай оқибатларга олиб келишини очик-ойдин изоҳлаб беради: "Ҳар кимки сўзи ёлгон, ёлгонлиги билинган, уятда қолган".

Сўзнинг бир-биридан фарқи кўпдир, аммо ёлгондан ёмонроқ тури йўқдир.

яъни чинлиги унга етарли бўлишини баён этади. Агар эрқ берган одам — беандиша ва пасткаш" - лигини уқтирар экан, шоир эзма, вайсаки кишиларни қоралайди. Сўзни ўз ўрнида, керак бўлган ўринда айтилишини, айтиш керак бўлмаган жойда сукут қилишини инсоннинг ўзи учун фойдали эканлигини куйидагича изоҳлайди: "Тан касалининг асоси кўп емакдир, қалб касалининг сабаби кўп демакдир".

Хуллас, ўзбек адабий тилининг асосчиси, буюк мутафаккир Алишер Навоий сўз ва тил белгиси инсоннинг зийнати эканлигини сўз таърифи, нутқ одоби масалаларида жуда кўп қимматли мулоҳазалар билан асослаб, сўз ва тил ҳақидаги бу фикрлар бугунги кунда ҳам ҳар биримизни баркамол инсон сифатида тарбиялаш учун муҳим манба бўлиб келмоқда.

Аллома тилни тийишни, лозим бўлган ҳолатларда сўзлаб, қолган ҳолларда сукутда бўлишни, тинглашни одоб-ахлоқнинг белгиси эканлигини таъкидлайди, тилни тиймоқ бошга тушадиган кўпфатлардан ўзни асраш эканлигига ишора қилади.

Камтар одамлар кўп гапиришдан қочадилар; улар кўп эшитмоқни истадилар ва ёқтирадилар. Эшитмоқ кишини бойитади; кўп гапирмоқ са-

Бекпўлат УМУРҚУЛОВ, Филология фанлари доктори, профессор

## МАЪРИФАТ МАНЗИЛИ: КИТОБ БИЛАН ЮКСАЛАЁТГАН АВЛОД

**Бугун юртимизда китобхонлик маданиятини юксалтириш давлат сиёсатининг энг устувор йўналишларидан бирига айланди. Айниқса, Ҳурматли Президентимизнинг 2026 йил 15 январдаги ПҚ-9 сонли қарори биз каби маърифат масканлари ходимлари зиммасига улкан масъулият, қалбимизга кўтаринки руҳ олиб кирди. Термиз шаҳридаги 16-умумий ўрта таълим мактаби кутубхонаси бугун шунчаки китоб сақладиган жой эмас, балки ёшларнинг сеvimли интеллектуал масканига айланган.**



**ЭРИШИЛГАН ЮТУҚЛАР – МЕҲНАТИМИЗ САМАРАСИ**

Мақтабимизда китобхонлик муҳитини яратишда жамоавий бирдамлик асосий омил бўлмоқда. Мактаб директори У. Иссаевнинг шахсан ташаббуси ва эътибори билан китобхон ўқувчи ва ўқитувчиларни рағбатлантириш тизими йўлга қўйилган. Бунинг натижаси ўлароқ, мактабимиз жамоаси "Энг яхши китобхон мактаб" кўрик-танловининг вилоят босқичида фахрли 1 ўринни эгаллади. Ўқувчиларимиз-

нинг натижалари ҳам бизни қувонтиради: улар "Зуқко китобхон" танловининг вилоят босқичида ғолибликни қўлга киритишди. Рес-публика миқёсида ўтказилган "Китоб билан бир кун" онлайн танловида совриндорлар сафидан жой олишди. Шахсан ўзим ҳам касбимга бўлган меҳрим ва соҳадаги изла-нишларим самараси ўлароқ, "Энг фаол кутубхоначи" кўрик-танловида икки карра шохсупанинг кучли учлигидан жой олиб, фахрли совриндорлар қаторида эътироф этилдим.

**ЗАМОНАВИЙ ШАРОИТ ВА БОЙ ФОНД**

Бугун кутубхонамиз фондида 7 200 дан зиёд дурдона бадий ва соҳага оид адабиётлар мавжуд. Биз нафақат анъанавий мутлоани, балки рақамли технологияларни ҳам кенг жорий этганмиз. Кутубхонамиз юқори тезликдаги WI-Fi тармоғи ва 6 та энг замонавий компьютер билан жиҳозланган бўлиб, ўқувчиларимиз жаҳон кутубхо-

налари базасидан фойдаланиш имкониятига эга. Она тили ва адабиёт фани ўқитувчилари билан ҳамкорликда йўлга қўйилган "Бир ҳафтада бир китоб" акцияси, китоблар асосида ўтказиладиган тест сновлар ва "Заковат" интеллектуал ўйинлари ўқувчиларнинг таҳлилий фикрлаш қобилиятини ўстирмоқда. **КЕЛАЖАК РЕЖАЛАР: УСТУВОР Йўналишлар**

Президентимизнинг янги қарори биз учун янги уфқлар очди. Келажакда куйидаги истиқболли ре-

жаларни амалга оширишни мақсад қилганмиз: "Жадидлар изидан" клуби: Мактабимизда жадид боболаримизнинг бой меросини ўрганишга бағишланган махсус тўғарақ фаолиятини янада кенгайтирармиз. Ҳар бир аъзо йилга камидан 20 та китоб мутлола қилиши таъминланади. **"МУТОЛАА" РАҚАМЛИ ПЛАТ-ФОРМАСИ:**

Мактаб йўлаклар ва жамоат жойларида QR-кодли электрон китоб тоқчаларини ташкил этиб, ўқувчиларнинг смартфонларини

"чўнтак кутубхонаси"га айлантирармиз. Маҳалла билан ҳамкорлик: Мактаб кутубхонасини маҳалла аҳолиси учун ҳам маърифат марказига айлантириб, "Китобхон оила" кўрик-танловларини ўтказишни режалаштирармиз. **АУДИО-МУТОЛАА ХОНАСИ:**

Кўриш қобилияти заифроқ ёки аудио-китобларга қизиқувчилар учун махсус эшитиш бурчакларини ташкил этиш муҳим мақсадларимиздан бири. Хулоса ўрнида

айтишим мумкинки, бизнинг мақсадимиз — 2026 йил якунига қадар мактабимиздаги ҳар бир ўқувчини йилга камидан 10-15 та китоб ўқийдиган даражага олиб чиқиш. Зеро, китоб ўқиган миллат ҳеч қачон кам бўлмайди. Биз, мактабимиз жамоаси, бу эзгу йўлда бор куч ва билимимизни сафарбар эта-

**Гулноз ШАБИРОВА,** Термиз шаҳридаги 16-умумий ўрта таълим мактаби кутубхона мудараси

**SURXON TONGI**  
va  
**ЗАРЯ СУРХАНА**  
gazetalari tahririyati

**MUASSISLAR:**  
Xalq deputatlari Surxondaryo viloyat Kengashi va viloyat hokimligi

**TAHRIR HAY'ATI**  
Abduraim CHORIYEV (hay'at raisi)  
Ilhom SAPAROV,  
Ibrohim YQUBOV,  
Murodbek DAVLATOV,  
Iqoriddin AYNIDDINOV,  
Dinara EGAMBERDIYEVA,  
Xurshid KARSHIYEV

**Gazeta**  
2017-yil 3-fevralda viloyat Matbuot va axborot boshqarmasida 11-001-raqam bilan qayta ro'yxatdan o'tgan.

**BOSH MUHARRIR**  
Salohiddin NORQOBILLOV  
**MAS'UL MUHARRIR**  
Sayyora ALLAYEVA  
**NAVATCHI MUHARRIR**  
Xurshid KARSHIYEV

**Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Muallif fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.**

**TELEFONLAR:**  
76 224-23-85,  
76 224-23-80,  
76 224-23-87

Qog'oz bichimi A-2, 2 bosma taboq  
Nashr indeksi: 6 500  
Bosishga topshirildi — 09:00  
Bosildi — 11:00  
Adadi 6 790 nusxa.  
Buyurtma G-

**MANZILIMIZ:**  
Termiz shahri, Shukrona ko'chasi, 19-A uy  
**BOSMAXONA MANZILI:**  
Termiz shahri, Shukrona ko'chasi, 19-A uy

**Gazeta "Surxon tongi" va "Zarya Suxhana" gazetalari tahririyati bosmaxonasida chop etildi.**